

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – BARCHAMIZNING BURCHIMIZ**

**Xaydarov Adxamjon Madaminjonovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litseyning  
o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari*

**Ibragimov Xasan Ismailovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik  
litsey o'qituvchisi istefodagi podpolkovnik*

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga bog'lanib, chirmashib ketganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. "Nozik", "chigalroq" ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo'lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, g'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlari belgilangan Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishida bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi mahsulidir. Prezident 2020 yilning 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, «Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi».

2017 yil 3 yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunni imzoladi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga

solishdan iborat bo'lib, unda «korrupsiya», «korrupsiyaga oid huquqbuzarlik», «manfaatlar to'qnashuvi» kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ham qayd etilgan. Shuningdek, qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta'minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi choralar mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan holda xorijiy tajriba atroflicha o'rganildi. Uning eng maqbul jihatlari Prezidentning mazkur farmonida to'laqonli aks ettirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

2021 yil 16 iyunda qabul qilingan «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarini tomonidan Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlashlari lozimligini joriy etildi. Bundan tashqari, budget xarajatlarini tartibga solish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, budget qonunchiligining buzilishi faktlari to'g'risida xabardor qilish va budget jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish tartib-taomilini tashkil etish bo'yicha «Openbudget» – «Ochiq budget» portali ishga tushirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning yana bir muhim jihati – davlat organlarini optimizatsiya qilish, ularning ixchamligini oshirish tizimli ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2021 yil 3 aprel kuni Prezident davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risidagi qarorni imzoladi. Qarorga muvofiq, davlat organlari xodimlarining soni 15 foizgacha maqbullashtirildi. Natijada, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning idoraviy va hududiy bo'linmalarida jami 5288 ta shtat qisqartirildi. Shuningdek, vazirlik va idoralarning 40 nafar rahbar o'rinbosarlari lavozimlari ham qisqartirildi.

Korrupsiya holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning eng muhim jihatlardan biri – davlat boshqaruvi tizimida «inson omili»ni kamaytirish uchun davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish

yo'lga qo'yildi. Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda jami 201 ta davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligining tashkil etilish ham O'zbekiston ratifikatsiya qilgan BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasining tegishli moddalari, shuningdek xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash amaliyotidagi «Jakarta prinsiplari»ning mamlakatdagi implementatsiyasiga misol bo'la oladi.

Korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish jamoatchilikning keng ishtirokida amalga oshirilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari, «Ishonch telefoni» hamda har bir vazirlik va davlat idoralarning «ishonch telefonlari», «virtual qabulxonalari» tashkil qilinib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining «sayyor qabullar»ni o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Jamiyatda ustuvor soha — ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi oldimizda ko'ndalang turibdi. “Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi”, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani eng katta kamchiligimiz.

Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan davlat xalqqa xizmat qilishi kerak, degan ulkan g'oya fuqarolik jamiyati institutlariga tizim va dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatini bergan edi. Ammo nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar bu borada tashabbus hamda tashkiliy ishlarni amalga oshirishni negadir paysalga solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023 yildagi farmoni bilan Korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda. Bunda har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qiladi va ushbu jinoyatlar oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun agentlik xodimlari ishtirokida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritib boradi.

Har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar Milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organi va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi.

O'zbekistonda fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi

ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etishi mumkin bo'ldi

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar kunidagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 27 may kunidagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
3. “Korrupsiya: uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari” J.Sirojev Adliya vazirligi bosh maslaxatchisi.
4. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
5. “Korrupsiyaga qarshi kurash davlat va jamiyat yangilanishida muhim omil”, N.Nodirxonava “Taraqqiyot starategiyasi” markazi bo'lim boshlig'i.